
KOREYS TILI YOZUVINING TARIXI

Zayniddinova Sarvinoz Jamoliddin qizi¹

¹ O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining 2-kurs talabasi,

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 06.03.2024

Revised: 07.03.2024

Accepted: 08.03.2024

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada koreys yozuvining tarixi, xususan, hangil alifbosining yaratilishi va rivojlanishi haqida so'z yuritiladi. Hangilning paydo bo'lishi, uning ilmiy asoslari hamda zamonaviy koreys tilidagi o'rni batafsil bayon etilgan. Shuningdek, bugungi kunda koreys yoshlar orasida keng tarqalgan tilshunoslik hodisalari — ingliz va koreys tillarining aralashmasi bo'lgan Konglish hamda yoshlar slengi sifatida qo'llaniladigan Geupsikche haqida ham qisqacha ma'lumot berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Koreys yozuvi, hangil tarixi, koreys tili, konglish, Geupsikche, koreys yozuvining rivojlanishi

KIRISH. Til jamiyat tarixidan darak beruvchi buyuk vosita bo'lib, insonning ma'naviy va ma'rifiy shakillanishi va rivojlanishi uchun zarurdir. Til, inson va jamiyat bir-birisiz bo'lmaydi. Til inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liqdir.¹ Har qanday tilni o'rganish asosida, ijtimoiy-madaniy dunyoqarashning til tasvirida aks etgan o'rganishlari yotadi. Ta'kidlab o'tish zarurki, bugungi kunda odamlar bitta til o'rganish bilan cheklanib qolmay so'nggi yillarda rivojlanib borayotgan chet tillarini ham o'rganishga harakat qilishmoqda. Shu jumlada koreys tilini ham. Koreys tilining yozuv tizmi Hangul deb nomlanadi. Shuningdek, Koreys yozuv tizimi, Hangul, eng ilmiy fonetik alifbo tizimi hisoblanadi.²

한글 kelib chiqishi

Koreys yarim oroli 935-yilda Shilla sulolasi tomonidan birlashtirilgandan so'ng, o'sha davrda og'zaki til bugungi kunda koreys tili sifatida tanilgan bo'lsa-da, yozma til sifatida xitoy ierogliflari — **Hanja** (한자) dan foydalanilgan. Ushbu ierogliflarning murakkabligi tufayli faqat yuqori tabaqa vakillari va olimlar yozuvni o'rganishga vaqt va kuch ajrata olgan, past tabaqadagi odamlarda esa yozuvni o'rganish imkoniyati deyarli yo'q edi. Bu holat 1443-yilda Qirol Sejong va uning olimlari koreys yozuv tizimi — **Hangul** (한글) ni

¹ Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. -Т., 2010, Б.6

² <https://www.kang.org/the-korea-herald-6#:~:text=The%20Korean%20writing%20system%2C%20the,most%20scientific%20phonetic%20alphabet%20system.>

yaratganidan so‘ng tubdan o‘zgardi. Bu vaziyat 1443-yilda Qirol Sejong va uning olimlari xalqni o‘qish va yozishga o‘rgatish uchun Hunminjeongeum (훈민정음) alifbosini taqdim etganda tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda bu alifbo **Hangul** (한글) nomi bilan tanilgan. Biroq, o‘sha davrdagi beqaror va noaniq siyosiy vaziyat, shuningdek, faqat o‘zlari savodli bo‘lishdan zavq olgan aristokratiyaning kuchli qarshiligi tufayli yangi alifbo darhol joriy etilmadi va jamiyat o‘sha davrda asosiy yozuv sifatida Xitoy ierogliflaridan foydalanishda davom etdi. Shunga qaramay, yangi alifboning yaratilishi Koreya yarim orolidagi og‘zaki tilga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ulardan biri "koreys" bo‘lish tushunchasi shakllana boshlagan birlashtiruvchi jarayon edi. ³Natijada koreys tilini nafaqat yuqori tabaqa vakillari balkim oddiy xalq ham asta sekin o’rgana boshladи.

ZAMONAVIY KOREYS TILI

Internetning rivojlanishi, globallashuv va ommaviy muloqot zamonaviy koreys tiliga katta ta’sir ko‘rsatdi. Texnologik dunyoda voyaga yetayotgan yosh avlodlar tezroq va samaraliroq muloqot usullariga ustunlik bermoqda. Shuning uchun, qisqartmalar, qo‘shilmalar, qisqartirishlar va yoshlar slengi (급식체 Geupsikche, ya’ni "yoshlar tili") kabi yangi uslublar paydo bo‘ldi. Bular axborot asriga xos bo‘lgan tezkor va samarali muloqot ehtiyojini qondirish uchun ishlatalidi va zamonaviy Koreyaning kundalik hayotiga kirib bormoqda.⁴Bundan tashqari Koreyada hozirgi kunda konglish so‘zlar ham ancha keng tarqalgan.Ya’ni koreys tili + ingliz tili .Bunday so‘zlarga 핸드폰(eng,handphone)-“ qo’l telefoni “ so‘zini misol qilishimiz mumkin.

Xulosa

Koreys tili koreys xalqining boy tarixi va mustahkamligini aks ettiradi. Uning kelib chiqishi hali ham munozarali bo‘lsa-da, ming yillar davomida rivojlangan o‘ziga xos til merosini namoyon etadi. 15-asrda Hangulning yaratilishi tilni ommaga yanada qulayroq qilishda burilish nuqtasi bo‘lib, innovatsiya va madaniy faxr ramzi sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. -Т., 2010, Б.6
 - 2.<https://www.kang.org/the-korea-herald>
- 6#:~:text=The%20Korean%20writing%20system%2C%20the,most%20scientific%20phone
tic%20alphabet%20system

³ 회 국제교육진흥원, 한국사. 2ND ED., SEOUL, 서울특별시인쇄공업협동조합, 1995

⁴ 호, 한기. "급식체 사전-10대들의 언어로 소통하고 세상 보기." 한국출판마케팅연구소, 학교도서관저널, 24 OCT. 2018,

JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS

Volume 1, May, 2025

https://spaceknowladge.com

3.회 국제교육진흥원, 한국사. 2ND ED., SEOUL, 서울특별시인쇄공업협동조합,
1995

4.호, 한기. "급식체 사전-10대들의 언어로 소통하고 세상 보기."
한국출판마케팅연구소, 학교도서관저널, 24 OCT. 2018